



XORAZM VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


2026-yil 1- fevral holatiga ko'ra

- I. Korxona va tashkilotlarning soni
- II. Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ma'lumotlar
- III. Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar
- IV. Korxona va tashkilotlar demografiyasiga oid metama'lumotlar va tushunchalar

I. Korxona va tashkilotlarning soni

2026- yil 1- fevral holatiga ko'ra, viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (dehqon va fermer xo'jaliklari bundan mustasno) 27 378 tani tashkil etadi, shundan 23 888 tasi yoki 87,3 foizi kichik korxona va mikrofirmalardir.

2025- yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 113,1 foizni, jumladan, kichik biznes va mikrofirmalarda – 114,6 foizni tashkil etdi.



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (birlikda)



Soni



O'sish sur'ati



	Korxona va tashkilotlar	shundan:	
		Tadbirkorlik subyektlari	shundan:
			Kichik biznes subyektlari
2026	27 378	23 888	22 615
2025	24 215	20 846	19 652
2024	26 750	23 489	22 295
2023	28 471	25 190	24 011
2022	25 234	22 043	20 983

Tumanlar bo'yicha eng ko'p faol korxona va tashkilotlar Urganch shahrida – 19,9 foiz, Urganch – 11,1 foiz, Xonqa – 8,1 foiz va Qo'shko'pir tumanlarida – 7,5 foiz faoliyat ko'rsatmoqda.

Tadbirkorlik subyektlarining faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar umumiy sonidagi salmoqli ulushi Urganch shahri – 91,1 foiz, Yangiariq – 89,7 foiz, Urganch – 89,3 foiz hamda Xonqa – 89,1 foiz tumanlarga to'g'ri keldi.

	Korxona va tashkilotlar	shundan:	
		Tadbirkorlik subyektlari	shundan:
			Kichik biznes subyektlari
Bog'ot	1823	1578	1529
Gurlan	1652	1418	1359
Qo'shko'pir	2046	1785	1720
Urganch	3044	2719	2525
Hazorasp	1786	1532	1458
Tuproqqal'a	770	644	600
Xonqa	2222	1980	1885
Xiva	1729	1519	1472
Shovot	1750	1482	1422
Yangiariq	1921	1724	1677
Yangibozor	1272	1092	1061
Urganch sh.	5446	4668	4255
Xiva sh.	1917	1747	1652

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)


[Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)



Korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlarning (tadbirkorlik subyektlari va kichik biznes subyektlarining) eng ko'p qismi savdo tarmog'ida qolmoqda, ularning ulushi 2026- yil 1- fevral holatiga 31,6 foizni (36,2 foiz va 36,2 foiz) tashkil etdi.



Korxona va tashkilotlar

Ikkinchi o'rinda "Sanoat" 13,5% (15,3% va 15,7%), uchinchi o'rinda "Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi" 12,6% (14,3% va 15,0 %).


Birgalikda ushbu uch turdagi faoliyat ular umumiy sonining 57.7 % ni tashkil qiladi.

	Korxona va tashkilotlar	shundan:	
		Tadbirkorlik subyektlari	Kichik biznes subyektlari
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	3440	3411	3395
Sanoat	3703	3665	3553
Qurilish	1539	1507	1335
Savdo	8658	8643	8192
Tashish va saqlash	1068	1058	964
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1785	1768	1561
Axborot va aloqa	495	479	471
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	825	615	557
Boshqa turlar	5865	2742	2587



I. Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ma'lumotlar

2026-yil 1-fevral holatiga ko'ra, 24 018 ta faol tijorat korxonalaridan 16 318 tasi mas'uliyati cheklangan jamiyatlar tashkil etilgan bo'lib, ular tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha korxonalar orasida birinchi o'rinni egallab turibdi.



Tadbirkorlik subyektlari

Shundan kelib chiqib, MCHJ lar mamlakatimizda biznes yuritishning eng keng tarqalgan shakli degan xulosaga kelishimiz mumkin.


	Tadbirkorlik subyektlari soni (birlikda)	Tadbirkorlik subyektlarining jamiga nisbatan ulushi (foizda)
Mas'uliyati cheklangan jamiyat	16 318	67,9
Xususiy korxonalar	3 776	15,7
Oilaviy korxonalar	3 738	15,6
Aksiyadorlik jamiyati	24	0,1
Boshqalar	162	0,7



II. Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Shuningdek, chet el investitsiyalari ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan 200 ta korxonadan 66 tasi qo'shma korxona va 134 tasi xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.



Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxona va tashkilotlar

2026- yilning 1- fevral holatiga ko'ra, xorijiy investitsiyalar ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning soni 2025-yilning mos davriga nisbatan 62 taga oshgan. Bu asosan, axborot va aloqa sohasidagi korxonalar sonining 3 tadan 23 taga (o'sish 20 taga), savdo sohasida 40 tadan 60 taga (o'sish 20 taga) va sanoat sohasida 37 tadan 47 taga (o'sish 10 taga) ko'payishi hisobiga to'g'ri keldi.

	Jami:	shundan:	
		Qo'shma korxona	Xorijiy korxona
Jami:	200	66	134
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	15	10	5
Sanoat	47	20	27
Qurilish	15	6	9
Savdo	60	15	45
Tashish va saqlash	6	2	4
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	7	3	4
Axborot va aloqa	23		23
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	4	2	2
Boshqa turlar	23	8	15



Ayrim davlatlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

Viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxona va tashkilotlar tahlil qilinganda, yetakchi o'rinni 42 ta korxona bilan Rossiya Federatsiyasi egalladi. Bu viloyatdagi xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 21,0 foizini tashkil etdi. Xorazm iqtisodiyotiga o'z kapitalini kiritib hissasini qo'shayotgan mamlakatlar orasida Turkmaniston (19,5%), Turkiya (15,0%), Xitoy (11,5%) va Qozog'iston (4,5) ham alohida o'rin egallaydi.

	Jami:	<i>shundan:</i>	
		Qo'shma korxona	Xorijiy korxona
Jami:	200	66	134
Xitoy	23	6	17
Rossiya	42	18	24
Turkiya	30	14	16
Qozog'iston	9	3	6
Buyuk Britaniya	1	0	1
Janubiy Koreya	4	3	1
AQSH	5	2	3
Turkmaniston	39	8	31
Pokiston	2	0	2
Yaponiya	4	2	2
Qirg'iz.Respublikasi	7	1	6
Hindiston	2	0	2
Boshqalar	32	9	23



III. Korxona va tashkilotlar demografiyasiga oid metama'lumotlar va tushunchalar

Registrlarni yuritish bo'yicha statistik faoliyatni amalga oshirish uchun asos bo'lib Vazirlar Mahkamasining 2022- yil 28- sentabrdagi "Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registrini yuritish va uning asosida davlat xizmatini ko'rsatishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 539-son qaroriga muvofiq Korxonalar va tashkilotlarning ma'lumotlari statistik tasniflagichlarga asosan shakllantiriladi..

Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan axborot-ma'lumotnoma tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi. Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida 2026- yil 1- fevral holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi..

Metama'lumot uchun havolalar:

[Metama'lumot Korxonalar va tashkilotlar soni](#)

[Glossariy](#)

[Statistik klassifikatsiyalar](#)

Mavzuga doir ko'rsatkichlar::

[Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan xususiy korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyati soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni \(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, oylik\)](#)

[Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Sanoat yo'nalishida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Qurilish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Savdo sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Tashish va saqlash xizmatlari sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Axborot va aloqa sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

Tayyorlash uchun ma'sul:
Raqamlashtirish va statistik
registrlarni yuritish bo'limi

Ijrochi:
R.Urinov
(62) 227-77-88

Manzil:
220100, Urganch sh.,
Al-Xorazmiy ko'chasi, 93-uy
